

## **BUXORO VILOYATIDA COVID-19 KASALLIGI TARQALISHIDA AHOLI HUDUDIY TAQSIMLANISHINING TUTGAN O'RNI**

*Omonov Olimjon Yunusovich*

*omonov.olimjon@bsmi.uz.*

*orcid.org/0009-0003-8268-7052*

*Buxoro Davlat Tibbiyot Institutti*

**Mavzuning dolzarbliji:** COVID-19 kasalligi qo'zg'atuvchisi bo'lgan og'ir o'tkir respirator koronavirus infeksiyasining (SARS-CoV-2) ning tez suratda tarqalishi, bu kasallik to'g'risidagi nafaqat klinik ma'lumotlarni , balki kasallikning ijtimoiy xususiyatlarini ham aniqlash zarurligini ko'rsatdi. Butun dunyo bo'y lab izlanishlar jarayonida COVID-19 kasalligining juda ko'plab ijtimoiy xususiyatlari aniqlandi. O'z navbatida olib borilgan tadqiqodlar tahlili orqali kasallikning tarqalishida aholining hududiy ya'ni territorial taqsimlanishining tutgan o'rni juda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin. Bu tadqiqodda bemorlarning shahar yoki qishloq aholisiga mansubligi, COVID-19 kasalligining ma'lum bir regiyonda qanday darajada tarqalganligini va tarqalish xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi. Kasallikning tarqalishida aholi hududiy taqsimlanishning o'rni yuqori ekanligini oxirgi paytlarda butun dunyo bo'y lab sayohat qilish imkoniyatlarining qulayligi va turli xil sayohat imkoniyatlarining mavjudligi bilan bog'lash mumkin. Ayni ana shu sabab dunyo bo'y lab kasallikning yangi shtammlarini tez fursatda tarqalishiga imkon berdi. Shunday qilib, tarqalib borayotgan SARS-CoV-2 infeksiyasi ko'pincha statistik ma'lumotlarni tartiblash salohiyatiga ega bo'lgan yuqori resursli sharoitlarda aniqlansada, ularning kelib chiqishi to'liqligicha aniqlanmagan. Virusga bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni nazorat qilishni yanada murakkablashtiradigan narsa qishloq aholisi orasida tizimli statistik kuzatuvning mavjud emasligi bo'lib hisoblanadi .

Dunyo bo'y lab o'tkazilgan bir nechta tadqiqotlar shahar va qishloq jamoalari o'rtasidagi SARS-CoV-2 infeksiyasining territorial tarqalish farqlarini o'rganib chiqdi. Boshqa virusli kasalliklar bo'yicha oldingi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, qishloq joylari shaharlardan farq qiladigan xususiyatlarga ega va yuqumli kasalliklar, jumladan parotit, gripp va zoonoz kasalliklarning tarixiy manbalari bo'lgan. Qishloq hududlari 2020-yilda COVID-19 pandemiyasining epitsentriga aylangani, ayniqsa AQShning O'rta G'arbiy qismida kasallanishning ko'payishi va yomon oqibatlarga olib kelgani haqida xabar axborot berilgan.

AQSHda o'tkazilgan tajribalar qishloq aholisi o'rtasida COVID-19 bilan kasallanish darajasi nisbatan yuqoriroq ekanligini ko'rsatsa , kasallik tarqalish o'chog'i

sifatida qaraladigan Xitoyda o'rkazilgan tadqiqodlar esa shahar aholisi o'rtasida kasallik tarqalish darajasining yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Bu tadqiqodimiz davomida Buxoro viloyatida 2020-2022- yillar davomida Buxoro viloyat kasalxonasi va Buxoro viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasida yotib davolangan ikki ming ikki nafar bemorni kasallik tarixlari asosida olib retrospektiv tahlil davomida yashash manziliga ko'ra, ya'ni shahar yoki qishloq aholisiga mansubligiga binoan kasallik tarqalish darajasini tahlil qildik

**Tadqiqod maqsadi:** Buxoro viloyatida COVID-19 kasalligini tarqalishi bilan aholi territorial taqsimlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni, 2020-va 2022-yillarda viloyat hududida davolangan bemorlarning kasallik tarixlarini retrospektiv tahlil asosida aniqlash.

**Material va metodlar:** Buxoro viloyat kasalxonasi va Viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasida 2020-2022- yillar davomida davolangan bemorlarning passpot ma'lumotlari.

**Olingan natijalar:** Biz o'z tadqiqodimiz davomida Buxoro viloyat kasalxonasi va Viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasida 2020-2022- yillar davomida COVID-19 tashxisi bilan davolangan 2002 nafar bemorning passpot ma'lumotlariga asosan bemorlarning yashash manziliga ko'ra barcha bemorlarni 2 guruhga ajratdik. Bunga ko'ra 1-guruh shaharda doimiy ro'yxatdan o'tgan aholi bo'sa 2- guruh qishloqda doimiy ro'yxatdan o'tgan aholi toifasi bo'lib hisoblanadi.



Ёш чегарасига кура таснифи	Беморлар сони	Фоиз микдори
шахар	1104	55.10%
Кишлек	898	44.90%

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinish turibdiki, Buxoro viloyati hududida COVID-19 kasalligining tarqalishida shahar va qishloq aholisi o'rtasida deyarli tenglikni kuzatish mumkin. Izoh sifatida aytish mukinki, jami yotib davolangan 2002 nafar bemorning 55%ni ya'ni 1104 nafari shaharda yashaydigan aholi sifatida nisbatan ko'proq ulushga ega bo'lган. Bemorlarning qolgan 45%ni esa son jihatdan gisoblaganda 898 nafari qishloq aholisi sifatida tasniflangan. O'z navbatida shuni ko'rish mimkinki Buxoro viloyatida shahar va qishloq aholisi o'rtasida kasallanish darajasi nisbiy tarzda olib qaraganda shahar aholisi o'rtasida ko'proq uchrashi aniqlandi.

**Xulosa:** COVID-19 kasalligining tarqalishida muhim deb hisoblangan ijtimoiy xususiyatlar orasida aholining hududiy taqsimlanishi alohida ahamiyatga ega. O'tkazgan tadqiqodimiz davomida Buxoro viloyatida COVID-19 kasalligining tarqalishi, shahar aholisi o'rtasida o'rtasida qishloq aholisiga nisbatan ko'proq uchradi. Ya'ni bundan xulosa qilish mumkinki shahar aholisi o'rtasida koronavirus infeksiyasining tarqalish darjasini yuqori bo'lib hisoblanadi. Bunga sabab tariqasida shahar aholisi o'rtasida populyatsiya zichligi hisobidan kommunikativ va integrativ jarayonlarning yuqori ekanligi bilan tushuntiriladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Curtin SC, Spencer MR. Trends in death rates in urban and rural areas: United States, 1999–2019. NCHS Data Brief, no 417. Hyattsville, MD: National Center for Health Statistics. 2021. DOI: <https://dx.doi.org/10.15620/cdc:109049>.
2. Xu JQ, Murphy SL, Kochanek KD, Arias E. Mortality in the United States, 2020. NCHS Data Brief, no 427. Hyattsville, MD: National Center for Health Statistics. 2021. DOI: <https://dx.doi.org/10.15620/cdc:112079>.
3. Ingram DD, Franco SJ. 2013 NCHS urban–rural classification scheme for counties. National Center for Health Statistics. Vital Health Stat 2(166). 2014.
4. Ullrich F, Mueller K. COVID-19 Cases and deaths, metropolitan and nonmetropolitan counties over time (update). Iowa City, IA: RUPRI Center for Rural Health Policy Analysis. 2022. Available from: <https://rupri.public-health.uiowa.edu/publications/policybriefs/2020/> COVID%20Longitudinal%20Data.pdf.
5. Centers for Disease Control and Prevention. CDC WONDER. About underlying cause of death, 1999–2020. 2022. Available from: <https://wonder.cdc.gov/ucd-icd10.html>.

6. Murphy SL, Xu JQ, Kochanek KD, Arias E. Deaths: Final data for 2019. National Vital Statistics Reports; vol 70 no 8. Hyattsville, MD: National Center for Health Statistics. 2021. DOI: <https://dx.doi.org/10.15620/cdc:106058>.
7. World Health Organization. International statistical classification of diseases and related health problems, 10th revision. 2008 ed. 2009
8. Davies Nicholas, G. et al. Estimated transmissibility and impact of SARS-CoV-2 lineage B.1.1.7 in England. *Science* 372, eabg3055 (2021).
9. Allen H. et al. Household transmission of COVID-19 cases associated with SARS CoV-2 delta variant (B.1.617.2): national case-control study. *The Lancet Regional Health – Europe*.
10. Meo, S. A., Meo, A. S., Al-Jassir, F. F. & Klonoff, D. C. Omicron SARS-CoV-2 new variant: global prevalence and biological and clinical characteristics. *Eur. Rev. Med. Pharmacol. Sci.* 25, 8012–8018 (2021).
11. Planas, D. et al. Sensitivity of infectious SARS-CoV-2 B.1.1.7 and B.1.351 variants to neutralizing antibodies. *Nat. Med.* 27, 917–924 (2021).
12. Madhi, S. A. et al. Efficacy of the ChAdOx1 nCoV-19 Covid-19 Vaccine against the B.1.351 Variant. *N. Engl. J. Med.* 384, 1885–1898 (2021).
13. Jangra, S. et al. SARS-CoV-2 spike E484K mutation reduces antibody neutralisation. *Lancet Microbe* 2, e283–e284 (2021).
14. Chia P. Y. et al. Virological and serological kinetics of SARS-CoV-2 Delta variant vaccine-breakthrough infections: a multi-center cohort study. 2021: 2021.07.28.21261295
15. Araf, Y. et al. Omicron variant of SARS-CoV-2: Genomics, transmissibility, and responses to current COVID-19 vaccines. *J. Med. Virol.* 94, 1825–1832 (2022).
16. SARS-CoV-2 variants of concern as of 4 August 2022. August 5, 2022. <https://www.ecdc.europa.eu/en/covid-19/variants-concern> (accessed August 9, 2022)